

O‘ZBEK TILIDA XARAKTER-XUSUSIYAT IFODALOVCHI AYRIM LUG‘AVIY BIRLIKLARNING GENDR TABIATI XUSUSIDA

Tursunboyeva Gulzoda Bekmirza qizi

NamDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Tel: +998972823090

Email: abduhamidovagulzoda02@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi xarakter-xususiyat ifodalovchi birliklarning gender tabiati bolalar xarakter-xususiyatini bildiruvchi ayrim lug‘aviy birliklar misolida lingvistik tahlili qilindi.

Kalit so‘zlar: til, xarakter, xususiyat, semantika, gender.

Tilimizda xarakter-xususiyat bildiruvchi birliklar talaygina. Ularni izohlashdan oldin, xarakter tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak, *xarakter* so‘zi aynan tarjima qilinganda grekchadan “tamg‘a” degan ma‘noni anglatadi, shaxsning voqelikka bo‘lgan munosabatlarini ifodalovchi, uning xulq-atvor va xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan barqaror xususiyatlarning individual tarzdagi yig‘indisi. Buni tilda xarakter-xususiyat ifodalovchi ma‘lum bir lug‘aviy birliklar ifoda etadi.

Ma‘lumki, xarakter-xususiyat bildiruvchi lug‘aviy birliklar, odatda, inson ruhiyati, xakteri bilan bog‘liq belgi-xususiyatlarni ifodalaydi. Tilimizda *aqlli, dilbar, latofatli, yaxshi, yomon, baquvvat, jozibali, go‘zal, suluv, barno, odobli, odobsiz, erka, o‘ychan, o‘jar, qaysar, beg‘ubor, pok, zabardast, zakiy, valiy, ochiqko‘ngil, balandparvoz, parishonxotir, badjahl, badnafs, battol, sergap, kamgap, chapdast, chapani, quv, qunoq, sho‘x, ayyor, topag‘on, bilag‘on, dardkash, dardchil, bag‘rikeng, muloyim, mehribon, dadil, sarbast, sinchkov, mag‘rur, o‘tkir, qo‘pol, usta, mohir, sezgir, oqil, tuyg‘un, kamsuqum, kamtar, bosiq, og‘ir, vazmin, sinchkov, sovuqqon, to‘pori, erkakshoda, cho‘rtkesar, g‘ayratli, abgor, ko‘hlik, chiroyli, dilgir, xushro‘y, masrur, tanti*

kabi xarakter-xususiyat bildiruvchi soʻzlar salmoqli miqdorni tashkil qiladi.

Bunday soʻzlarning bir guruhi katta yoshdagi kishilar xarakterini ifodalasa, yana bir guruhi yoshlar, xususan, bolalar xarakter-xususiyatini ifodalashda qoʻllaniladi. Oʻzbek xalqi bolajon xalq boʻlganligi uchun tilimizda bolalarga xos xarakter-xususiyatini ifodalovchi *abjir*, *begʻubor*, *erka*, *erkatoy*, *shoʻx*, *bilagʻon*, *chayir*, *topagʻon*, *injiq*, *poʻmpaloq*, *chechan*, *quv*, *uddaburon*, *oʻyinqaroq*, *qaqildoq*, *yoqimtoy*, *poshsho*, *toʻpalonchi*, *battol*, *mahmadona*, *ziyrak*, *bezori*, *yigʻloqi* va kabi soʻzlar faol qoʻllanadi.

Bu kabi lugʻaviy birliklarni bolalarning yoshi, qiziqishlari, aqliy fazilatlari, ijobiy va salbiy xarakteri, gap-soʻzlari, harakatlari, jinsiy tabiatiga xos belgi-xususiyatlarni ifodalovchi mavzuiy guruhlariga ajratish mumkin. Masalan, bolaning jinsiga koʻra: ***chechan*** soʻzi “chaqqon, gapga usta” maʼnolarida: *Senqiz juda chechan ekansan-ku, bedanaday sayraysan-a!* (P.Tursun, Oʻqituvchi), ***ziyrak*** (forscha – oqil, dono) – tez fahmlaydigan, fahmi tez, sezgir maʼnosida: *Tillaxon yoshligidan zehnli, ziyrak qiz edi* (J.Seytnazarov “Tillaxonning quvonchi”), ***erka***, ***erkatoy*** “erkalik qilish, xohish-ixtiyorini qozongan, shunday erk-ixtiyorga ega” maʼnosida: *Bu er-xotinga... erkatoiy qizlari yayrab-yashnasa bas!* (Gazetadan), ***qaqildoq*** – oʻzini bilagʻon sanab, hadeb gapiraveradigan, gapdon, maʼnosida: – *O, muncha qaqildoq ekan buqiz*, – *oliftaxonim yuzini teskari burdi*, – *tashviqot qilyapti bizni*. (Oybek, “Nur qidirib”), ***mahmadona*** – yoshiga nisbatan koʻp gap biladigan, gapdon: *Usta Mahkamning kichik qizi Inobat mahmadonagina chiqqan* (S.Ahmad. “Sud”) soʻzlari, asosan, qiz bolalarga xos xarakter-xususiyatni ifodalashda qoʻllaniladi.

Oʻzbek tilidagi ***shoʻx*** (forscha “oʻynoqi”) *vaqtini oʻyin bilan oʻtkazadigan*, *oʻyinqaroq* maʼnosida: *Ertadan kechgacha yaylovda tinmay oʻynab charchagan shoʻx bolalarni birlahzada va birdan uyqu oldi* (Oybek “Tanlangan asarlar”); ***oʻyinqaroq***- vaqtini doim oʻyin bilan oʻtkazadigan, oʻyinga berilgan: Botiralinig bu

o'yinqaroq yillari uzoqqa cho'zilmadi (S.Ahmad, "Hukm"), **to'palonchi** "behalovat, o'yinni, sho'xlikni yaxshi ko'radigan, ortiq darajada sho'x" ma'nolarida: *Shunday to'palonchi bolaning birdaniga yuvosh bo'lib qolganini ko'rib sinfdoshlari hayron edi* (O'.Hoshimov, "Qalbingga quloq sol"), **abjir** "oyoq-qo'ltez, tez harakat qila oladigan" (abjir bola), **chopqir** – tez chopadigan, yelday yuguradigan (chopqir bola) kabi so'zlar ko'proq o'g'il bolalarga nisbatan ko'p ishlatiladi.

Bundan tashqari, **battol** (arabcha – bekorchi, ishsiz) – berahm, vahshiy ma'nosida: *Bolalarning eng battoli Qosimcho'loq edi* (Oybek, "Fanorchi ota"), **bezori** (forscha – nafrat, yomon ko'rish) – hammani bezor qiluvchi, ko'pchilikning tinchligini buzuvchi: *Oyim bilan dadam meni juda erkalatib yuborishgan emish, shu ketishda ketaversam mendan qip-qizil bezori chiqar emish* (X.To'xtaboyev, "Sariq devni minib") kabi birliklar o'g'il bolalarga, **tantiq** so'zi esa, ortiq erkalatib, taltaytirib yuborilgan, taltaygan: *Mohim – Xorazmxoni... Allomatxonning yagona tantiq qizi* (S.Abdulla, "Tohir va Zuhra") ma'nosida qiz bolalarga xos salbiy xarakter-xususiyatni ifodalaydi.

Bolalar xarakteri-xususiyatini berishda yuqorida keltirilgan sifatlardan tashqari boshqa turkumdagi **asal** (asal bola, asalqiz), **shirin** – xulq-atvoriyoqadigan, yoqimli, suyumli (Shirin-shakarbolar), **shaker** – kishiga yoqadigan, yoqimli (tili shakar qiz, **do'mboq**- to'ladan kelgan, lo'ppi (do'mboq bola), **shayton** – sho'x, o'ynoqi: *Qiz bola shayton bo'ladi-da, tavba, bo'y-basti cho'zilib qolibdi* (Sh.Toshmatov, "Erk qushi") kabi so'zlar ko'chma ma'noda qo'llanganda o'g'il bolalarga ham qizbollarga ham xos xarakter-xususiyatni bildiradi.

Yosh bolalarning aql-zakovati, zehni baholashda **topqir**, **topag'on**- tez, darrov topadigan (topag'on bola), **bilarmon**, **bilag'on** ko'p narsadan xabardor bo'lgan, ko'p biladigan (bilag'on bolajon) singari birliklardan keng foydalanamiz.

Yig'loqi – aynan yig'loq, **injiq**- uncha-munchani yoqtirmaydigan, aytganga ko'navermaydigan: Bola yig'loqi, injiq; saldan salga yotoqxonani boshiga ko'tarar (J.Abdullaxanov, "Xonadon"), **serxarxasha**- hadeb xarxasha qilaveradigan, juda injiq

(serxarxasha bola): Ayniqsa, Mavlon akaning “to‘rva qoqdisi” – ikki yashar Nishontoy juda serxarxasha bola (H.G‘ulom, “Mash‘al”) sifatlari go‘daklik davridagi va uch-to‘rt yoshlik bolalarga nisbatan qo‘llaniladi. Shuningdek, *poshsho*, *sarmontoy*, *po‘mpaloq* kabi bolalarni erkalovchi so‘zlar shevalarda qo‘llanadi.

Xulosa qilib aytganda, tilda bizni o‘rab turgan atrof-muhit, borliq o‘z ifodasini topadi. Shuningdek, til shu til egasi bo‘lgan xalqni, uning ta’rixi, urf-odati, madaniyati, turmush tarzini o‘zida aks ettiradi, saqlaydi va kelajak avlodlarga yetkazadi. Tilimiz boy, uning imkoniyatlari keng, xarakter-xususiyat ifodalovchi lug‘aviy birliklar esa alohida semantik guruhni tashkil etadi hamda ularda o‘zbek xalqining bolalarga munosabati yorqin ifodasini topgan. Bunday lug‘aviy birliklarni leksik-semantik, tarixiy-etimologik, yasalish va uslubiy jihatdan tadqiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020.1-4-жилдлар.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2005.
3. <http://www.ziyonet.uz>.
4. <http://www.pedagog.uz/> Pedagogik ta’lim muasasalari portali.
5. <https://e-library.namdu.uz>.